Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ахмедов Нумон	
Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqldiy usul misolida)	661
Jo'rayeva Dilafruz Nuriddinova	
O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
Masharipova Miyassar Ichanovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
Shaxnoza To'xtiyarova	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'ilo'y Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zozxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	

AQLI ZAIF BOLALARDA SENSOMOTOR RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna

Namangan viloyati boshqarmasi To'raqo'rg'on tumanidagi
alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan (aqli zaif) bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan 48-sonli maktab-internat
logopediya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning sensomotor rivojlanishi jarayonida korreksion-pedagogik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Maqolada sensor va motor faoliyatidagi psixik nuqsonlarni bartaraf etish, kompensatsiya qilish hamda bolani ijtimoiy muhitga moslashtirish usullari tahlil qilinadi. Turli mashqlar, o'yin texnologiyalari va sensor xonalarning samaradorligi ilmiy asoslarda ko'rsatib berilgan. Natijada, sensomotor rivojlanish bolaning nutq, tafakkur va ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishida muhim omil ekani isbotlanadi.

Kalit so'zlar: sensomotor rivojlanish, korreksion pedagogika, aqliy rivojlanish, maxsus ta'lim, sensor xonalar.

Abstract: This article highlights the importance of the correctional-pedagogical approach in the process of sensorimotor development of children with mental development problems. The article analyzes methods for eliminating and compensating for sensory and motor impairments, as well as adapting the child to the social environment. The effectiveness of various exercises, game technologies and sensory rooms is scientifically demonstrated. As a result, it is proven that sensorimotor development is an important factor in the formation of a child's speech, thinking and social skills.

Key words: sensorimotor development, correctional pedagogy, mental development, special education, sensory rooms.

Аннотация: В статье освещается важность коррекционно-педагогического подхода в процессе сенсомоторного развития детей с нарушениями психического развития. Анализируются методы устранения и компенсации нарушений сенсорно-моторной активности, а также адаптации ребёнка к социальной среде. Научно обоснована эффективность различных упражнений, игровых технологий и сенсорных комнат. В результате доказано, что сенсомоторное развитие является важным фактором формирования речи, мышления и социальных навыков ребёнка.

Ключевые слова: сенсомоторное развитие, коррекционная педагогика, психическое развитие, специальное образование, сенсорные комнаты.

KIRISH

Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maxsus pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biridir. Chunki bunday bolalarda bilish faoliyati, hissiy-irodaviy jarayonlar va xulq-atvor doiralarida turg'un buzilishlar kuzatiladi. Shu bois, ularning sensomotor rivojlanishini erta aniqlash va korreksion-pedagogik chora-tadbirlarni ishlab chiqish ularning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aqli zaiflikda bosh miya po'stloq qismi zararlanishi natijasida analiz-sintez jarayoni, ya'ni ma'lumotni qayta ishlash sezilarli orqada qoladi. Bunday bolalarda nutq, tushuncha va elementar aqliy faoliyatlar buziladi. Harakat-tayanch apparatining yetishmovchiligida (bolalar serebral falaji, poliomieliitda) harakatlanish imkoniyatlarining chegaralanganligi natijasida o'yinchoqlarni ola olmaydi, qo'l va ko'z harakatlarini yaxshi boshqara olmaydi. Bu esa o'z navbatida atrof-muhit va predmetlar haqidagi tasavvurlarning buzilishiga olib keladi. Ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishiga qaramay, rivojlanishning "sensitive davri" deb ataladigan psixik hodisa uchun ham anchagina o'ziga xoslik xarakterlidir. Sensitive davr – bola hayotining shunday davriki, bu davrda psixik funksiyalar tashqi ta'sirlarga juda sezgir bo'ladi va ularning ta'siri ostida intensiv rivojlanadi.



Har bir psixik funksiyaning sensitive davri turlicha bo'lib, boshlanish vaqti, namoyon bo'lishi va davomiyligi bilan farqlanadi. Bunday davrlar alohida psixik funksiyalarning rivojlanishida ham (masalan, ko'rish, harakat), murakkab sistemalarning hosil bo'lishida ham (masalan, nutq, o'qish) mavjud. Odatda jismoniy va aqliy rivojlanishida yetishmovchiligi bo'lgan bolalarda ham, normal rivojlanayotgan bolalarda ham psixofiziologik funksiyalar va ruhiy jarayonlarning rivojlanishidagi sensitive davrlar yosh bo'yicha bir-biriga mos tushadi. Biroq bu ularning namoyon bo'lish boshlanishi va davomiyligi bir xil degani emas.

Sensitive davrning davomiyligi yosh bilan emas, balki nerv strukturalarining (har bir funktsiya uchun javobgar bo'lgan) yetishmovchiligi bilan aniqlanadi. Biron bir yetishmovchiligi bor bolalarda ayrim funksiyalarning yetilish muddati ham, navbatma-navbat namoyon bo'lish muddati ham o'zgaradi. Bu esa murakkab oliy ruhiy funksiyalarning paydo bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Chunki oliy ruhiy funksiyalarning shakllanishi ularni tashkil qiluvchi oddiy funksiyalar ishtirokida amalga oshadi. Oliy ruhiy funksiyalar shakllanishida bir nechta oddiy ruhiy funksiyalar ma'lum ketma-ketlikda ishtirok etadi. Masalan, nutq paydo bo'lishida avval eshituv va harakat analizatorlari o'zaro ta'siri rivojlanadi, sal kechroq esa bu murakkab funksional sistemaga ko'ruv analizatorlari qo'shiladi. Bu taxminan 5 yoshdagi davrda sodir bo'ladi va bu vaqt o'qishni o'rgatish uchun sensitive davrning boshlanishi hisoblanadi.

Murakkab sistemaga kiruvchi biror oddiy funksiyadagi nuqson bu sistemaning shakllanishini susaytiradi yoki qiyinlashtiradi. Oddiy funksiyalardan birining butunlay ishdan chiqishi murakkab funksional sistemaning yuzaga kelishini faqat "aylanib o'tuvchi" yo'llar orqali amalga oshiradi. Masalan, ko'rlikda o'qitish jarayonida ko'ruv sezgisi o'rniga paypaslab sezish (Braille yozuvi) ishlatiladi. Xuddi shunday, karlikda eshituv sezgisi o'rniga ko'ruv, taktil yoki vibratsion sezgi xizmat qiladi.

Sensitive davr tushunchasi birinchi bor M. Montessorri tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor, motor va aqliy tarbiyasini o'rgatishda kiritilgan. M. Montessorri ta'kidlaganidek: "Agar biz boladagi biror funksional sistemani rivojlantirishni kech boshlasak, ya'ni sensitive davrni qisman yoki butunlay o'tkazib yuborsak, bunda erishilishi mumkin bo'lgan rivojlanish darajasiga hech qachon yetilmaslik xavfi tug'iladi." Sensitive davr boshlanmasdan oldin biror funksiyani rivojlantirishga qaratilgan vaqtincha harakatlar ham kutilgan natijani bermaydi.

Hozirgi zamon maxsus psixologiya va umumiy psixologiya murakkab funksiyalarni rivojlantirishda qaysi yo'l maqsadga muvofiq ekanligi haqida aniq bir xulosaga ega emas. Masalan, o'qish jarayonida avval oddiy funksiyalarni rivojlantirish kerakmi yoki darhol murakkab sistemaga o'tish lozimmi – bu masalada turlicha qarashlar mavjud. Montessorri uslubi birinchi yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Fiziolog M. M. Koltsova bolalar uylarida olib borgan tadqiqotlarida qo'l barmoqlari motorikasini rivojlantirish nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Qarama-qarshi yondashuv tarafdorlari esa murakkab funksiyalarni bevosita rivojlantirish samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. Kar bolalarda maxsus korreksion pedagogik ishlarni erta boshlash natijalari shuni ko'rsatadiki, nuqsonli bolalarda erta boshlangan ta'lim normal bolalarga qaraganda ko'proq samara beradi. Ba'zi funksiyalar (masalan: kar bolalarda nutq) maxsus tashkil etilgan pedagogik aralashuvsiz butunlay rivojlana olmaydi. Maxsus o'qitish nuqsonli bolalarning keyingi rivojlanish bosqichlarida ham katta ahamiyatga ega.

Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda olib borilgan maxsus tarbiyaviy ishlar shuni ko'rsatadiki, 2 yillik muntazam mashg'ulotlardan so'ng ularning rivojlanish darajasi normal tengdoshlariga yaqinlashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzuda aqli zaif bolalarning sensomotor rivojlanishiga doir ma'lumotlarni tizimli ravishda yig'ish va tahlil qilishga asoslanadi. Ma'lumotlar asosan kuzatish, psixologik-pedagogik diagnostika, amaliy mashg'ulotlarni tahlil qilish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning motorika, idrok va nutq faoliyatini baholovchi standart testlar yordamida olindi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida ko'rib chiqildi; bolalarning sensomotor ko'nikmalaridagi o'zgarishlar taqqoslash, dinamik kuzatish va pedagogik eksperiment elementlari orqali baholandi. Tahlil natijalari ularning rivojlanish darajasidagi farqlarni aniqlashga hamda korreksion ta'sirning samaradorligini belgilashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aqli zaif bolalarda go'daklik davrida, maktab yoshgacha bo'lgan davrda motorika rivojlanishida orqada qolish yoki kamchiliklar kuzatiladi. Ular o'z tengdoshlariga nisbatan oldidagi o'yinchoqlarga kechroq intiladi, kechroq o'tirishni, turishni, emaklashni, yurishni kechroq boshlaydi. Harakat sustligi bolani atrofdagi predmetlar bilan tanishuvini sekinlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakati sustligi, qiyinroqligi, yomon koordinatsiyalanganligi yoki haddan tashqari impulsivligi bilan ajralib turadi. Bu esa bolani oddiy hayotiy zarur harakatlarni o'rganishiga monelik qiluvchi sabab bo'ladi.



Go'dak yoshdan o'tgan bola uzoq vaqt idish–tovoqlardan, qoshiqdan foydalanishni eplolmaydi. Ovqatni og'ziga olib kelguncha to'kib yuboradi, stolni, kiyimlarini iflos qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, agar ular bilan maxsus shug'ullanilmagan bo'lsa, mustaqil kiyinib–yechina olmaydi, o'zining buyumlarini to'g'ri joylashtirishni bilmaydi. Ayniqsa, ularga tugmani yechib–taqish, oyoq kiyimining ipini bog'lash qiyinchilik tug'diradi. Bunday bolalar yurganda, sakraganda, yugurganda harakatlarining noaniqligi ko'rinadi. Motorikadagi kamchiliklar nutq rivojlanishidagi talaffuz nuqsonlariga sabab bo'ladi. Fonetik nuqsonsiz nutq, nutq organlarining aniq koordinatsiyasi bilan bog'liq. Oyoq–qo'l harakatlarida namoyon bo'lgan motorika buzilishi nutq harakatlarida ham o'z aksini topadi.

Maktab davrida motorikadagi kamchiliklar har darsda va darsdan tashqari o'tkaziladigan korreksion tarbiya natijasida silliqlanib, sezilarli bo'lmay qoladi. O'quvchilarning harakatida asta-sekin aniqlik paydo bo'ladi. Yuqori sinflarda ular yengil va chiroyli yurishni, raqs tushishni, yugurish, koptok o'ynash, murakkab harakatlarni o'rganib oladi.

Aqli zaif bolalarning e'tibori boshqaruvsiz, noaniq, diqqatini tortish qiyin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning e'tiborini tortish, biror obyektga ushlab turish uchun turli xil usullar qo'llaniladi. Ko'pincha yorqin predmetlar tasviridan foydalaniladi. Oddiy holatlar o'yinchoqlar yordamida o'yin bilan tushuntiriladi. Bolaning e'tiborining namoyon bo'lishi undagi nuqsonning qay darajada ekanligi va o'ziga xosligiga bog'liq. Asosan qisqa va kam hajmdagi e'tibor qo'zg'aluvchan o'quvchilarga xos.

Qo'zg'aluvchanligi sust oligofren bolalar bir qarashda e'tiborli ko'rinsa-da, ulardagi sustkashlik patologik inertlikning bir ko'rinishi xolos. Kichik sinflardagi aqli zaif bolalar ham juda e'tiborsiz bo'ladi. Bu ularning o'qish, o'rganish jarayonida katta to'siq tug'diradi. Ular bajarayotgan ishga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, chalg'imasdan ishlay olmaydi. Bunda ularning qiziqishlarining rivojlanmaganligi ham muhim rol o'ynaydi.

Qiziqishlar bola xulqini uyg'otadi va sotsial faollikni oshiruvchi mezonlardan biridir. Motivatsion talab sferasi aqliy rivojlanishi sust bolalarda shakllanishning boshlang'ich bosqichida bo'ladi. Ularning qiziqishlari bajarayotgan faoliyatining o'ziga bog'liq, intensivligi past, chuqur emas, bir tomonlama, shakllanmagan va barqaror emas, fiziologik talablarga nisbatan yuzaga keladi. Ularning atrofdagi predmetlarga qiziqishi sust. Qo'zg'aluvchan bolalar esa hamma narsaga talpinadi, mumkin yoki yo'qligini o'ylab o'tirmay ko'zi tushgan narsani ushlab oladi. Lekin ularni qiziqish boshqarmaydi, balki ularga xos bo'lgan impulsivlik boshqaradi. Ular bir zumda ushlagan narsalarini tashlab yuboradi, chunki u ular uchun qiziqarli emas.

Qo'zg'aluvchan bo'lmagan oligofrenlar esa atrofdagi narsani sezmagandek ko'rinadi. Ularning e'tiborini hech narsa bilan tortib bo'lmaydi. Ular kattalarga juda kam savol beradi. Biror predmet haqida mustaqil o'rganishga urinmaydi. Ularning predmetga qaratilgan harakati og'ziga tiqib ko'rish yoki shu predmet bilan stolni urib ko'rishdan iborat bo'ladi. Ba'zan ular ayamasdan yangi o'yinchoqlarni buzadi, sindiradi. Bunday bolalarda maktab davrida hech qanday chuqur qiziqish bo'lmaydi yoki befoйда, bir tomonlama bo'ladi. Ular qiziqishni to'liq anglamaydi, yaxshi shakllanmagan, shaxsiy qiziqishlari esa hamma narsadan ustun turadi.

Kichik sinflardagi oligofren o'quvchilar dars jarayonida faol bo'lmaydi, ayniqsa fikrlash talab qilinadigan mashg'ulotlarda. O'qishning boshlang'ich davrida aqli zaif bolalarning o'quv materialiga qiziqishi o'qitishning yorqin uslublariga bog'liq bo'ladi. Ularning o'quv materialiga qiziqishi normal tengdoshlariga qaraganda kechroq namoyon bo'ladi. Ba'zan o'qishga befarqlik bilan birga shunday holatlar kuzatiladiki, o'qitishning ilk davrida ular uchun yangi mashg'ulot bo'lganligi tufayli o'qishga va darslarga ijobiy munosabat paydo bo'ladi. Hatto vazifani to'liq anglamay turib, uni bajarish usullarini bilmagan holda o'quvchilar katta qiziqish bilan ishga kirishadi. Bajarish usullarini egallab borgan sari o'quvchining qiziqishi ortib boradi.

Maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon aqli zaif o'quvchilarda kichik sinflardan boshlab turli qiziqishlarni shakllantirishga qaratiladi. Bu ularda dunyoqarashni kengaytirish uchun ham zarur. O'smirlarda asosiy qiziqishlar faqat o'qish bilan bog'liq bo'lmaydi; ular maktabdan tashqari faoliyatga siljiydi. Katta sinflarda esa ma'lum bir amaliy faoliyatga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi (masalan, to'qish, tikish). Maxsus maktabda o'quvchilarning tashqi dunyo bilan munosabatlari ham ma'lum qiziqishlarning shakllanishida ahamiyat kasb etadi.

Go'dakning tashqi dunyoni anglashida uning sezgisi va qabul qilishi muhim rol o'ynaydi. Aqli zaif bolalarda normal bolalarga nisbatan ob'ektlarni his qilish va hodisalarni qabul qilish buzilgan bo'ladi. Eksperiment yo'li bilan aniqlanganki, ko'rish orqali anglash aqli zaif bolalarda sustroq, biroq o'qish davomida tezlashadi. Ijobiy o'zgarishlar oddiy va soddaroq tuzilgan predmetlarni anglashda kuzatiladi.

Ko'rish orqali yetarlicha farqlay olmaslik – bir-biriga yaqin ranglarni, bir-biriga o'xshash predmetlarni global ko'rish, ya'ni ularning mayda belgilari va tuzilishidagi farqlarni ajrata olmaslikda namoyon bo'ladi. Masalan, bog'cha tarbiyalanuvchilari yoki kichik sinf o'quvchilari mushuk bilan olmaxon, kompas bilan soat o'rtasidagi farqni anglay olmaydi. Aqli zaif bolalarda voqea, hodisa va predmetlarni o'ziga xos anglash xususiyati mavjud. Kichik yoshdagi o'quvchilar ko'rish orqali anglashini o'zgargan sharoitga moslashtira olmaydi. Agar predmetning tasviri fazoda o'zgartirilsa, masalan, yuqorisi pastga burib qo'yilsa, bolalar uni boshqa, yangi predmet sifatida qabul qiladi.



Sensomotor rivojlanish normal rivojlanayotgan bolalarda uch etapda kechadi:

- I – harakatlanishning paydo bo'lishi;
- II – predmetning holati va harakatini anglash;
- III – nutq rivojlanishi.

Aqli zaif bolalar ham ushbu davrlarni o'tadi, biroq ularda bu davrlarning muddati boshqacha va o'ziga xos tarzda kechadi. Aqli zaif bolalarda maktabgacha davrda xotira sust bo'ladi, ayniqsa verbal materiallarni eslab qolishda qiyinchilik seziladi. Ular ko'rgazmali materiallarni nisbatan yaxshiroq eslab qoladi (yorqin rasmlar, tanish predmetlar, real hayotdagi ob'ektlar), ammo bu xotirada uzoq saqlanmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar yangi materialni eslab qolishda qiynaladi. Ular faqat kuchli taassurot qoldirgan voqealarni eslay oladi (juda yoqqan yoki juda qo'rqan holatlar). Bu esa idrok, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarida sezilarli yetishmovchiliklarni yuzaga keltiradi.

Ularning e'tibori barqaror emas, nutqi kech rivojlanadi, predmetlarni ajratish va umumlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli ta'lim jarayoni maxsus yondashuvni talab qiladi.

Maktabgacha yoshda bunday bolalarda motorika sekin shakllanadi. Ular yurishni, emaklashni, predmetlarni ushlab ko'rishni tengdoshlariga nisbatan kechroq o'zlashtiradi. Natijada predmetli faoliyat, nutqiy muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar ham orqada qoladi. Shu sababli pedagogik ishlar harakat va idrokni uyg'unlashtirishga qaratilishi lozim.

Normal rivojlanishda sensomotor bosqichlar harakatlanish, predmet bilan amaliy faoliyat va nutq rivojlanishi tarzida ketma-ket shakllanadi. Aqli zaif bolalarda esa bu bosqichlar kechikadi va o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda idrok buzilishi, tafakkurdagi cheklanishlar va nutqning rivojlanmaganligi muhim rol o'ynaydi.

Aqli zaif bolalar ko'rgazmali materiallarni so'zlarga nisbatan yaxshiroq eslab qoladi, biroq ma'lumotning saqlanish muddati qisqadir. Idrok jarayonida ular predmetlarning butunligini emas, ayrim belgilari asosida umumlashtiradi. Bu esa bilimlarni shakllantirishda qiyinchilik tug'diradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning kechikishi ularning umumiy psixik faoliyatida chuqur iz qoldiradi. Maxsus ta'lim va korreksion mashg'ulotlar yordamida motorika, idrok va nutqni rivojlantirish orqali bunday bolalarning ijtimoiy moslashuvini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Shu bois, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar va amaliyot doimiy e'tiborda bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vigotskiy L. S. Anomal bolalar psixologiyasi. – Moskva, 1930.
2. Zankov L. V., Vlasova T. A. Defektologiya asoslari. – Moskva, 1977.
3. Nurkeldiyeva D. A. Aqli zaif bolalarni psixologik o'rganish. – Toshkent, 2015.
4. Gershuni G. V., Sokolov E. N. Psixofiziologik jarayonlar nazariyasi. – Moskva, 1980.
5. Kuznetsova G. V. Maxsus psixologiya. – Toshkent, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.